



## LEGAL TECHNI JORIY ETISH: YURIDIK FIRMALARDA O'ZGARISHLARNI BOSHQARISH

Najmiddinova Jasmina Dilmurodovna

najmiddinova850@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs B-potok 1-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17580047>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-noyabr 2025 yil  
Ma'qullandi: 3-noyabr 2025 yil  
Nashr qilindi: 11-noyabr 2025 yil

### KEY WORDS

Legal Tech, yuridik firmalar, o'zgarishlarni boshqarish, raqamlashtirish, innovatsiya, huquqiy texnologiyalar, boshqaruv modeli, amaliy tavsiyalar, samaradorlik.

### ABSTRACT

Ushbu tadqiqot Legal Tech ya'ni yuridik texnologiyalarni yuridik firmalarda joriy etish jarayonida o'zgarishlarni boshqarish mexanizmlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada yuridik sohada raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning ahamiyati, yuridik xizmatlarni avtomatlashtirish jarayonining o'ziga xos jihatlari va bu o'zgarishlarning tashkilot madaniyati hamda boshqaruv tizimiga ta'siri yoritilgan. Tadqiqotda xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilgari surilgan ilmiy yondashuvlar tahlil qilinib, ularning Legal Tech rivojiga oid qarashlari o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Legal Tech vositalarini samarali joriy etish yuridik firmalarning boshqaruv tizimini takomillashtiradi, xizmat sifatini oshiradi, mijozlar bilan munosabatlarni soddalashtiradi va ish unumdorligini oshiradi. Shu bilan birga, texnik infratuzilmaning yetishmasligi, xodimlarning texnologik ko'nikmalari pastligi, ma'lumotlar xavfsizligiga oid xavotirlar va moliyaviy to'siqlar Legal Techni keng joriy etishda asosiy muammolar sifatida namoyon bo'lmoqda. Maqola yakunida yuridik firmalarda Legal Techni samarali tatbiq etish uchun nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Nazariy tavsiyalar o'zgarishlarni boshqarishning konseptual modeliga asoslanadi, amaliy tavsiyalar esa yuridik firmalarda texnologik innovatsiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish, xodimlarni tayyorlash, raqamli infratuzilmani mustahkamlash va texnik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan. Tadqiqot natijalari yuridik firmalarda innovatsion boshqaruv tizimini shakllantirish, raqamli o'zgarishlarga moslashish va huquqiy xizmatlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

### **L.KIRISH**

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi barcha sohalarga, shu jumladan huquqiy xizmatlar ko'rsatish sohasiga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. "Legal Tech" atamasi ostida birlashtirilgan yuridik innovatsiyalar aynan yuridik firmalar faoliyatini tubdan o'zgartirish imkoniyatiga ega. Ushbu maqolada Legal Techni joriy etishda yuridik firmalarda o'zgarishlar bilan bog'liq foydali jihatlari ko'rib chiqiladi va uning huquqiy xizmatlar ko'rsatish samaradorligini

oshirishdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, hozirgi kunda dunyoda Legal Tech joriy etish, ayniqsa, yuridik firmalar bilan bog'liq har qanday masalaga qiziqish kundan – kunga ortib bormoqda. Legal Tech tushunchasi huquqiy faoliyatda axborot texnologiyalari va dasturiy ta'minotdan foydalanishni o'z ichiga oladi (**Susskind 2019**<sup>i</sup>). Bu soha yuridik hujjatlarni avtomatlashtirish, ma'lumotlarni tahlil qilish, sun'iy intellekt orqali huquqiy maslahatlar berish kabi sohalarida rivojlanmoqda. Yuridik firmalarda Legal Tech texnologiyalarini muvaffaqiyatli joriy etish jarayoni, avvalo, o'zgarishlarni samarali boshqarish tizimiga bog'liq bo'lib, tashkilot xodimlari va hamkorlarining ushbu texnologiyalardan foydalanishga tayyorligi natijaga bevosita ta'sir ko'rsatadi<sup>ii</sup>. Shu sababli, o'zgarishlarni boshqarish strategiyasi faqat texnik yechimlarni emas, balki inson omilini ham qamrab olishi lozim, chunki bu omil firmada innovatsion madaniyatni shakllantiradi va yangi tizimlardan maksimal foyda olish imkonini beradi. Bunga misol qilib, **Legal Zoom** yuridik firmasi yoki **Relativity** kabi firmalarda Legal Tech joriy etilishi bilan kirib kelgan o'zgarishlarni e'tirof etish mumkin. Bunda asosiy o'zgarishlar:

*-vaqtni optimallashtirish,*

*-mavjud xavflarni kamaytirish,*

*-mijozlar munosabatini yaxshilash va resurslarni yo'naltirish bilan bog'liq.* Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — yuridik firmalarda Legal Tech texnologiyalarini joriy etish jarayonida o'zgarishlarni boshqarish mexanizmlarini tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash hamda amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot davomida tashkilot ichidagi inson omili, texnologiyaga moslashuv, rahbariyatning qo'llab-quvvatlashi va o'zgarishlarga qarshilik kabi jihatlar o'rganiladi. Shu bilan birga, olimlar tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlar ham tahlil qilinib, ularning yuridik amaliyotdagi qo'llanish imkoniyatlari baholanadi. Maqola natijalari yuridik firmalarda raqamli transformatsiya jarayonini samarali boshqarish, innovatsion muhit yaratish va xizmat sifatini oshirishga xizmat qiladi.

## **II. METODOLOGIYA**

Ushbu tadqiqot yuridik firmalarda Legal Tech texnologiyalarini joriy etish jarayonida o'zgarishlarni boshqarish amaliyotini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, quyidagi usullardan foydalanilgan: Tadqiqot uchun yuridik texnologiyalar, o'zgarishlarni boshqarish va raqamli transformatsiya bo'yicha ilmiy maqolalar, kitoblar va ishonchli onlayn manbalar o'rganilgan. Qolavesa, maqolani aralash uslubda tadqiq etish ham maqsadga muvofiq. Maqolada emperik, amaliy, shu bilan birgalikda taqqoslash, qiyoslash, induksiya va deduksiya kabi uslublaridan foydalanish nazarda tutiladi. Avvalambor, tarixiy uslubga kelsak, **1960-1980** yillar yuridik firmalar kompyuter texnologiyalarini endigina qo'llay boshlagan vaqt edi. Unda asosan hujjatlarni elektron tarzda yozish va ma'lumotlar bazasini yuritish uchun dasturlar paydo bo'lgan edi. **LexisNexis** va **Westlaw** kabi huquqiy ma'lumotlar bazasi yaratilgach katta inqilob bo'ldi. Ko'p imkoniyatlar cheklanganligi bois ko'plab vazifalar an'anaviy tarzda davom etdi. Biroq hozirgi zamonga kelib, Legal Tech juda rivojlanib ketdi. Legal Tech hozirda blockchain, smart contracts, cybersecurity, data privacy kabi yo'nalishlarga o'tdi. Yuridik firmalar ham aynan shu sabab rivojlandi va ko'p qulayliklarga ega bo'ldi. Masalan, **Clifford Chance**, **Baker McKenzie**, **Linklaters** kabi yirik firmalar o'zlarining Legal Tech startaplarini ham yaratishgan va ko'plab muvaffaqiyatlarga erishishmoqda. Taqqoslash metodi bo'yicha **Clifford Chance** ya'ni o'zining boshqaruv tizimida Legal Techdan foydalangan mashhur firma bilan Legal Techdan foydalanmagan an'anaviy yondashuvda qolgan firmaga misol keltiriladi. Unga ko'ra, **Clifford chance Kira Systems** sun'iy intellekt dasturini **2017-yildan** boshlab joriy etgan va u orqali ko'plab shartnomalarni tahlil qilish, xatolarni aniqlash vaqtini **70%ga** qisqartirganligi,

advokatlar ham strategik ishlarga ko'proq vaqt ajrata boshlashgan<sup>iii</sup>. Biroq, an'anaviy yondashuvdagi kichik yuridik firma hujjatlarni qo'lda tekshirish orqali vaqtni yo'qotishi, xatolarni mavjudligi samaradorlik koefficienti tushib ketishiga sabab bo'lgan. Bundan ko'rinib turibdiki, Legal Techni yuridik firmalarga joriy etish samaraliroq va firmalar o'rtasidagi raqobatda ham muhim o'ringa ega ekan. Aynan hozirda ko'plab yuridik firmalar tomonidan keng qamrovda foydalanib kelinayotgan sun'iy intellektlarga misol sifatida:

1. **Spellbook<sup>iv</sup>** – asosan kontraktlar, kelishuvlar va hujjat draftlar bilan ishlashga mo'ljallangan **Al-yechim**. U Spellbook kompaniyasi tomonidan **2019-yil** tashkil topgan. Yuridik firmalar tomonidan hujjat yaratish va tahrir vaqtini qisqartirishda, hujjatlardagi riskli bandlarni tez aniqlashga yordam berishda ishlatiladi.

2. **Luminance** - Luminance **Buyuk Britaniyada** ya'ni **Cambridge** hududida tashkil topgan<sup>v</sup>. Kompaniya **2015-yilda** asos solingan. Luminance huquqiy firmalar va korporativ yuristlar uchun sun'iy intellektga asoslangan platforma bo'lib, asosan hujjatlar bilan ishlashni avtomatlashtirishga mo'ljallangan. Afzalliklari, tezkor analiz qilish imkoniyati bor. Turli tillar va yurisdiksiyalarda hujjatlarni ko'rib chiqish imkoniyatini, hujjatlardagi xavflarni aniqlash va standartlarni tekshirishga yordam beradi.

Faktlarga ko'ra, **Luminance** platformasi yuridik firmalarda hujjatlarni tahlil qilish va ko'rib chiqish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi. Masalan, **real estate due diligence** loyihasida **~150 ta hujjat** avval **50 soat** davomida ko'rib chiqilsa, **Luminance** yordamida bu jarayon **atigi 15 soatga** tushgan, ya'ni **35 soat** yoki **~70%** vaqt tejashga erishilgan. **BA-HR** kompaniyasida esa **200+ hujjatni** ko'rib chiqish uchun ilgari **45 soat** talab qilinardi, **Luminance** bilan bu vaqt **30 soatga** qisqardi, ya'ni **15 soat (~33%)** tejash mumkin bo'ldi.

Shuningdek, **Bird & Bird** yuridik firmasi misolida **1 900** xodimga tegishli hujjatlarni **8 nafar xodim 3 hafta** davomida faqat **10%** qismini ko'rib chiqqan bo'lsa, **Luminance** yordamida **2 nafar xodim 3 hafta** ichida **20 000** xodimga tegishli hujjatlarni tahlil qilgan, va samaradorlik **70%** ga oshgan. Shu tariqa, **Luminance** platformasi yuridik firmalarda hujjatlarni ko'rib chiqish va tahlil qilish jarayonida **33-70%** gacha vaqt tejashga imkon beradi.

Shuningdek, ko'plab platformalar tahlil qilindi. Misol uchun, **Harvard Law School, Stanford Legal Tech Program va American Bar Association** kabi platformalar. Aynan, **Harvad law school** tomonidan "**Huquqiy tashkilotlarda innovatsiyalarni amalda joriy etish**" nomli kollokviumda tashkil etilgan va mavzuga doir bir nechta ijobiy masalalar o'rganildi<sup>vi</sup>. Undan tashqari, **O'zbekiston qonunchiligi** bo'yicha ham Legal Techni joriy etish bilan bog'liq qonunlar va me'yoriy hujjatlar o'rganildi. Bularga, **Fuqarolik va tijorat huquqi**, "**Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi**" qonun (O'RQ- 547-son 02.07.2019)<sup>vii</sup>, "**Elektron hukumat to'g'risidagi**" qonun (O'RQ-395-son 09.12.2015)<sup>viii</sup> shuningdek, boshqa huquq sohasida texnologiyalarni rivojlantirishga oid boshqa milliy qonunchilik hujjatlari tahlil qilindi. Aynan ushbu sohaga oid bir qancha tadqiqotlar olib borildi. Tadqiqotlar davomida yuridik firmalardagi amaliyotlar solishtirildi. Eng muhimlaridan biri - **White & Case** va **LawGeex**: Kontraktlarni avtomatik tahlil qilish. **White & Case** — dunyodagi yetakchi xalqaro yuridik firmalardan biri bo'lib, **44 ta ofisi** va **2,000** dan ortiq yuridik xodimlari bilan xizmat ko'rsatadi. **2020-yilda** firma, **LawGeex** kompaniyasining AI asosidagi kontraktlarni avtomatik tahlil qilish platformasini o'z faoliyatiga joriy etdi<sup>ix</sup>. Ikkinchisi, **LawGeex** platformasi, yuridik hujjatlarni ko'rib chiqish jarayonini avtomatlashtirishga mo'ljallangan bo'lib, shartnomalarni oldindan ko'rib chiqish, redlayn qilish va muzokaralar jarayonlarini tezlashtirishga yordam beradi. Bu tizim, mijozlarning oldindan tasdiqlangan yuridik siyosatlarini va ko'rsatmalariga muvofiq bo'lmagan bandlarni belgilaydi va yetishmayotgan bandlarni qo'shadi, natijada ko'rib chiqish jarayonini tezlashtiradi<sup>x</sup>. Bundan tashqari, so'rovnomalar ham aynan yuridik firmalarda Legal Techni joriy etilishi bilan bog'liq

o'zgarishlarni ko'rsatadi. Buni isboti sifatida, amalda o'tkazilgan so'rovnoma xodimlar va menejerlarning Legal Techga nisbatan qabul qilish darajasi, o'zgarishlarga munosabat va texnologiyadan foydalanish darajasini aniqlash bilan bog'liq munosabat ko'rsatilib o'tildi. Undan tashqari, **EY Agentik AI** bo'yicha so'rovnoma o'tkazadi<sup>xi</sup>. Unda xodimlarning **84%** AI texnologiyalarini o'z ish faoliyatida qo'llashga tayyor ekanliklarini bildirgan. Bu, xodimlarning texnologiyaga ochiqligini va uni o'z ish jarayonlariga integratsiya qilishga tayyor ekanliklarini ko'rsatadi. Shunday qilib, ushbu usullar orqali o'tkazilgan har qanday tadqiqot, so'rovnoma aynan yuridik firmalarda Legal Techni joriy etish bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlarni va boshqaruvdagi afzalliklarni yaqqol ko'rsatib o'tgan.

### III. NATIJALAR

Ushbu maqolaning natijalar bo'limiga olingan tadqiqot natijalari bo'yicha axborot berib o'tilsa, yuridik firmalarda Legal Tech texnologiyalarini boshqaruv jarayonlariga joriy etish yuridik xizmatlar sifatini oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va ichki boshqaruv mexanizmlarini samarali yo'lga qo'yish imkonini berishi aniqlangan. Legal Tech tizimlari — jumladan, hujjatlarni avtomatik tahlil qiluvchi dasturlar, raqamli ish yuritish modullari va mijozlar bilan onlayn muloqot platformalari — yuridik firmalarda ish hajmini ancha yengillashtirdi. Natijada, huquqshunoslarning ma'muriy yuklamasi kamayib, ular murakkab huquqiy masalalarni hal etishga ko'proq e'tibor qaratish imkoniga ega bo'lishdi. Masalan, **2024-yilda Thomson Reuters Institute** tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, Legal Tech joriy etilgan firmalarda ish jarayonlarining umumiy samaradorligi **30 foizgacha** oshgani kuzatilgan<sup>xii</sup>. Endi asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratilsa, ya'ni yuridik firmalarda Legal Techni joriy etilishi quyidagi jihatlari bilan bog'liq:

- 1. Ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylik darajasining yuqoriligi.** Yuridik faoliyatda mijoz ma'lumotlari eng muhim qadriyat hisoblanadi. Shu bois raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish birinchi o'rinda turadi. Bulutli texnologiyalar, raqamli imzolar va xavfsizlik algoritmlaridan foydalanish O'zbekiston Respublikasining *"Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"*gi qonuni (O'RQ- 547-son 02.07.2019) talablariga to'liq mos keladi<sup>xiii</sup>. Bundan tashqari, xalqaro tajribada **EU GDPR 2018**, **Data Protection Act 2018**<sup>xiv</sup> ko'ra shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishda Legal Tech tizimlarining maxfiylik siyosatini muntazam yangilab borish orqali huquqiy xavflarni kamaytirish samarali natijalar bergan.
- 2. Moliyaviy tejamkorlik va resurslarni optimallashtirish.** Legal Tech yechimlarini joriy etgan yuridik firmalarda huquqiy maslahatchilar, kotiblar va yordamchi xodimlarga bo'lgan talab kamayib, operatsion xarajatlar 20–25 foizgacha qisqargan. Bu natijani **Thomson Reuters (2024)**<sup>xv</sup> hamda **PwC Legal Industry Report (2023)** tahlillari tasdiqlaydi. Bundan tashqari, O'zbekiston sharoitida ham yirik firmalar masalan, **Lex Agency va Legalmax** tomonidan ayrim raqamli boshqaruv modullarini joriy etish tajribalari kuzatilgan — bu esa milliy huquqiy xizmatlar bozorida texnologik transformatsiyaning asta-sekin shakllanayotganidan dalolat beradi.
- 3. Tashkiliy o'zgarishlarni boshqarish samaradorligi.** Tadqiqot davomida ko'plab so'rovnoma asosida aniqlanishicha, Legal Tech tizimlarini joriy etish xodimlarning texnologiyaga bo'lgan ishonchini oshiradi, bu esa o'zgarishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim omilidir. **McKinsey & Co. (2021)** tomonidan o'tkazilgan global tahlilga ko'ra, texnologik o'zgarishlarni amalga oshirgan tashkilotlarning **67 foizi** xodimlarning raqamli moslashuvi yetarli bo'lmagani sababli kutilgan natijaga to'liq erisha olmagan<sup>xvi</sup>. Shunday ekan, yuridik firmalarda o'zgarishlarni boshqarish uchun xodimlarni raqamli ko'nikmalarga o'rgatish, bosqichma-bosqich o'zgarish siyosatini yo'lga qo'yish zarur. Shu asosda aytish mumkinki, yuridik firmalarda Legal Techni joriy etish nafaqat texnologik

yangilik, balki boshqaruv strategiyasining ajralmas elementi sifatida ko'rilishi lozim. Natijalar, shuningdek, firmalarda raqamli o'zgarishlar madaniyatini shakllantirish, texnologiyani inson omiliga moslashtirish va huquqiy xizmatlar sifatini xalqaro standartlarga mos darajaga olib chiqish uchun mustahkam asos yaratadi. Xalqaro olimlardan jumladan, **Richard Suskind** ta'kidlaganidek: *Yuridik kasbning kelajagi texnologiyalar bilan uyg'unlashgan huquqiy xizmatlarga tayanadi. Raqamli islohotlar e'tiborsiz qoldirilgan har qanday yuridik tizim orqada qoladi.*

Biroq, har doim ham texnologiyalardan foydalanish afzallik keltirmaydi. Shubhasiz, mavjud kamchiliklarni ham keltirib o'tilishi zarur.

1. **Ma'lumot maxfiyligining buzilishi.** Legal Tech tizimlari ko'pincha katta hajmdagi mijoz ma'lumotlarini, shartnomalarni va sud hujjatlarini raqamli shaklda saqlaydi. Sun'iy intellekt vositalari **bulut (cloud)** asosida ishlagani uchun, ma'lumotlar uchinchi shaxslarga chiqib ketish, buzilish yoki noqonuniy foydalanilish xavfiga ega. Bu esa advokatlik siri va mijoz maxfiyligini buzish bilan bog'liq jiddiy huquqiy oqibatlariga olib keladi.

2. **AI tomonidan noto'g'ri yoki soxta huquqiy ma'lumot berilishi.** Legal Tech platformalari hujjatlar tahlili yoki yuridik tavsiya berishda sun'iy intellektdan foydalanadi, ammo ba'zi hollarda AI mavjud bo'lmagan qonun, sud qarori yoki bandni xato keltirishi mumkin. Bu esa yuridik jarayonda xatolarga, noto'g'ri maslahat berilishiga va sudda ishonchsizlikka sabab bo'ladi.

3. **Etik va huquqiy javobgarlikning noaniqligi.** AI huquqiy jarayonlarda ishlatilganda, xatolik yuz bersa, javobgarlik kimda — tizimni ishlab chiquvchimi, advokatmi yoki firma rahbariyatidami — degan savol ochiq qoladi. Bu esa **advokatlik kasbi etikasi, mijoz oldidagi mas'uliyat va AI qarorlarining huquqiy kuchi** bilan bog'liq yangi muammolarni yuzaga keltiradi.

O'rganilgan vaziyat bo'yicha bir nechta caselar mavjud. Masalan, **Buyuk Britaniyadagi Mishcon de Reya firmasida 2021-yilda** Legal Tech platformasidan foydalanish jarayonida mijoz ma'lumotlari tasodifan ochiq joyga tushib qolgan<sup>xvii</sup>. Natijada firma **Ma'lumotlarni himoya qilish idorasi (ICO)** tomonidan jarimaga tortilgan.

Fikrimcha, Legal Tech texnologiyalaridan to'g'ri va ehtiyotkorlik bilan foydalanilsa, u yuridik firmalar uchun zamonaviy qulaylik, balki raqobatbardoshlik, aniqlilik va samaradorlikni ta'minlovchi vositadir. Shu jihatdan, afzalliklari amaliyotda noafzalliklaridan ustun turadi.

#### IV. MUHOKAMA

Yuridik firmalarda Legal Tech texnologiyalarini joriy etish nafaqat texnik yangilik, balki boshqaruv madaniyatini ham tubdan o'zgartiradi. Bunday o'zgarishlar jarayonida firmalar ko'pincha ikki yo'lning birida turadi: bir tomondan, raqamli tizimlar yordamida ish unumdorligini oshirish, ikkinchi tomondan esa inson omilini yo'qotmaslik. Aslida, bu ikki jihat bir-birini to'ldirishi lozim. Masalan, hujjatlarni avtomatlashtiruvchi dasturlar advokatlarning vaqtini tejaydi, biroq ularning mijoz bilan muloqot qilish ko'nikmasini to'liq almashtira olmaydi. O'zbekistonda Legal Tech sohasining joriy etilishi hali yangi yo'nalish hisoblanadi. Shu sababli, har bir yuridik firma bu tizimni o'z sharoitiga moslashtirishi zarur. Masalan, xalqaro amaliyotda **Clifford Chance va Allen & Overy** kabi yirik firmalar erta bosqichdayoq sun'iy intellektdan foydalangan holda hujjat tahlilini avtomatlashtirgan, bu esa ularga xatoliklarni **30 foizgacha** kamaytirish imkonini bergan<sup>xviii</sup>. Bunday tajriba O'zbekistondagi firmalar uchun ham yo'l-yo'riq bo'la oladi. Legal Tech'ni joriy etish jarayonida asosiy muammo — bu o'zgarishlarga qarshilik. Odamlar, ayniqsa tajribali yuristlar, ko'pincha yangi tizimlarga ishonchsizlik bilan qaraydilar. Buni o'zgartirish uchun rahbarlar avvalo raqamli

madaniyatni shakllantirishlari lozim. Shuni ham ta'kidlash joizki, yuridik firmalarda Legal Tech'ni joriy etish faqat texnologik jarayon emas, balki u madaniy va boshqaruviy o'zgarishlarni ham talab qiladi. An'anaviy yondashuvdan zamonaviy raqamli modelga o'tish jarayonida rahbarlar va xodimlar o'rtasida o'zaro ishonch, hamkorlik va o'zgarishlarga tayyorgarlik muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan, firmalar o'zgarishlarni boshqarishda inson omilini e'tibordan chetda qoldirmasliklari lozim — zero, texnologiya inson o'rnini emas, balki uning imkoniyatlarini kengaytirishi kerak. Legal Tech joriy etilishi bilan yuridik firmalarda qaror qabul qilish tezligi, hujjat aylanishi samaradorligi va mijozlar bilan ishlash sifati ortadi. Ammo bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun rahbarlar xodimlarning texnologiyaga nisbatan qarshiligini kamaytirish choralarini ko'rishlari zarur. Buning uchun doimiy o'qitish, treninglar, rag'batlantirish tizimi va aniq strategik reja muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi texnologiyalarni joriy etish jarayonida rahbarlar o'z jamoalarini ilhomlantira olsalar, bu o'zgarishlar jarayoni barqaror va samarali kechadi. Shuningdek, huquqiy firmalarda Legal Tech'ning muvaffaqiyati ularning mavjud qonunchilik tizimiga qanday moslashishiga ham bog'liq. Har bir yangi texnologiya ma'lumot xavfsizligi, maxfiylik va mijoz huquqlarini himoya qilishga zid kelmasligi kerak. Shu sababli, firmalar texnologiyani joriy etishda milliy qonunchilik talablarini chuqur tahlil qilgan holda, normativ-huquqiy bazani to'g'ri talqin etishlari lozim.

Bundan tashqari, amaliy natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, Legal Tech vositalarini joriy etgan firmalarda ish hajmi kamaymaydi, balki samaradorlik oshadi — xodimlar murakkab tahliliy ishlarga ko'proq vaqt ajrata boshlaydilar. Bu esa professional o'sish, mijozlar ishonchini mustahkamlash va raqobatbardoshlikni ta'minlaydi. Legal Tech — bu kelajakning muqarrar bosqichi. Uni rad etish yoki kechiktirish raqamli iqtisodiyot sharoitida orqada qolish bilan barobar. Shu sababli, yuridik firmalar uchun texnologiyani qabul qilish emas, balki uni ongli, tizimli va strategik yo'l bilan joriy etish eng to'g'ri yo'ldir. **Gartner**'ning **2024-yilgi** tahlilida qayd etilishicha, raqamli o'zgarishlar muvaffaqiyatining **80 foizi** inson omiliga bog'liq<sup>xix</sup>. Demak, Legal Tech'ni joriy etish texnik masala emas, balki ijtimoiy va tashkiliy masala hamdir. Bundan tashqari, O'zbekiston sharoitida huquqiy infratuzilma va normativ-huquqiy asoslarni ham kuchaytirish muhim. Chunki ko'plab Legal Tech vositalari — masalan, onlayn shartnoma platformalari yoki elektron ishonchnomalar — amaldagi qonunchilikka moslashtirilmas ekan, ularning to'liq ishlashi qiyin. Shu ma'noda, raqamli huquq sohasidagi islohotlar yuridik firmalar bilan hamohang ravishda olib borilishi lozim. Yuridik firmalarda o'zgarishlarni boshqarishning yana bir muhim jihati — bu xodimlarning o'qitilishi va motivatsiyasi. **Deloitte 2023-yilda** o'tkazgan tadqiqotida yuridik tashkilotlarning **64 foizi** raqamli o'zgarishlar muvaffaqiyatini xodimlarning yangi texnologiyalarni qabul qilish tezligiga bog'liq deb topgan<sup>xx</sup>. Demak, rahbarlar faqat dastur joriy etish bilan kifoyalanmay, xodimlarni undovchi muhit yaratishlari kerak. Shuningdek, Legal Tech firmalarga strategik qarorlarni tezroq qabul qilish imkonini beradi. Masalan, ma'lumotlar tahliliga asoslangan qarorlar nafaqat ish jarayonlarini soddalashtiradi, balki mijozlarga yanada aniqroq maslahat berish imkonini yaratadi. **PwC** hisobotiga ko'ra, raqamli tahlil vositalaridan foydalangan yuridik firmalar foydalilik darajasini **o'rtacha 25 foizga** oshirgan<sup>xxi</sup>. Bu natija o'zgarishlarni to'g'ri boshqarishning iqtisodiy foydasini yaqqol ko'rsatadi. Bundan tashqari, Legal Techni joriy etishda yuridik firmalarda mavjud o'zgarishlarni boshqarish bilan bog'liq takliflar ham zarur. Ushbu tadqiqotda zarur takliflar va tavsiyalar keltirib o'tiladi.

**1. Yuridik firmalarda Legal Tech vositalarini samarali qo'llash uchun avvalo xodimlarning texnologik savodxonligini oshirish zarur.** Buning uchun muntazam treninglar, seminarlar va onlayn o'quv platformalari orqali yuridik xodimlarni yangi texnologiyalar bilan tanishtirish tavsiya etiladi. Bu nafaqat ularning ish unumdorligini oshiradi, balki yangi tizimlarga tezroq moslashuvini ham ta'minlaydi. Misol uchun, **AQSHda** yirik yuridik firmalar

har yili **Legal Tech** trening dasturlarini tashkil etadi. Xodimlar uchun *“Digital Law Academy”* kabi ichki platformalar yaratilgan bo'lib, u yerda advokatlar sun'iy intellektdan, smart-kontraktlardan va huquqiy ma'lumotlar bazalaridan foydalanishni o'rganadi. Natijada, ish unumdorligi **30–40%** ga oshgan. **Buyuk Britaniyada ham Law Society of England and Wales** barcha yuridik firmalarga *Legal Tech Literacy Programni* majburiy joriy qilishni tavsiya etgan. Bu dastur orqali advokatlar AI hujjat tahlili, raqamli maxfiylik va blokcheyn asosidagi shartnomalarni tushunishni o'rganadi. Shuningdek, talabalar uchun **Future Lawyers Hub** orqali raqamli ko'nikmalarni erta rivojlantirish yo'lga qo'yilgan. O'zbekistonda ham yuridik firmalarda xodimlarning texnologik savodxonligini oshirish zarur, chunki Legal Tech joriy etish samaradorligi to'g'ridan-to'g'ri inson omiliga bog'liq. Masalan, quyidagilarni joriy etilishi maqsadga muvofiq :

1. **Yuridik firmalarda “Raqamli huquq bo'yicha trening markazlari” tashkil etish.**
2. **Chet eldagi tajribalarni xususan, Law Society va BRAK dasturlarini adaptatsiya qilish.**

**2.Mahalliy Legal Tech platformalarini ishlab chiqish** ya'ni O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan, milliy qonunchilik bazasiga integratsiyalashgan Legal Tech tizimlarini ishlab chiqish zarur. Bunday platformalar huquqiy jarayonlarni avtomatlashtirish, hujjatlarni elektron shaklda yuritish va mijozlar bilan masofadan ishlash imkonini beradi. Shu yo'l bilan xorijiy texnologiyalarga qaramlik kamayadi va yuridik xizmatlar sifati oshadi. Davlatlar misolida olsak, **AQSHdagi DoNotPay<sup>xxii</sup> – “robot-yurist”** orqali huquqiy yordam tizimi. Dunyo miqyosida eng mashhur Legal Tech loyihalardan biri bu — **DoNotPay** platformasidir. Ushbu tizim **2016-yilda Buyuk Britaniyada** tug'ilgan **Joshua Browder** tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, keyinchalik **AQSHda** rasmiy faoliyatini kengaytirgan. **DoNotPay** dastlab yo'l harakati jarimalariga qarshi onlayn shikoyat topshirish uchun mo'ljallangan edi, biroq hozirda u *“robot-yurist”* darajasiga yetgan va yuzlab huquqiy yo'nalishlarda avtomatik xizmat ko'rsatadi. O'zbekiston sharoitida ham **DoNotPay**'ga o'xshash **“HuquqBot”** yoki **“Lexona”** nomli milliy platforma yaratilishi maqsadga muvofiq. O'zbekiston sharoitida ham **DoNotPay**'ga o'xshash **“HuquqBot”** yoki **“Lexona”** nomli milliy platforma yaratilishi maqsadga muvofiq, chunki

1. Fuqarolarning huquqiy savodxonligi past, lekin internetdan faol foydalanishadi — bu esa chatbot shaklidagi huquqiy yordam tizimi uchun qulay muhit.
2. Advokat xizmatlari qimmat yoki chekka hududlarda mavjud emas. Onlayn platforma esa aholining barcha qatlamlariga teng imkoniyat beradi.
3. **Yurxizmat.uz va Yoqla.uz** bazasida bunday tizimni yaratish oson, faqat unga **DoNotPay**'dagi kabi:  
**avtomatik ariza tuzuvchi modul,**  
**davlat organlariga elektron yuborish tizimi,**  
**sun'iy intellektli huquqiy maslahat xizmati qo'shilishi kerak.**

**3.Legal Techni joriy etishda o'zgarishlarni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish.** Yuridik firmalarda yangi texnologiyalarni joriy etishda o'zgarishlarni boshqarish juda muhim. Buning uchun rahbariyat tomonidan bosqichma-bosqich amalga oshirish rejasi, xodimlar uchun motivatsion tizim, va ichki kommunikatsiyani kuchaytirish mexanizmlari ishlab chiqilishi kerak. Bu jarayon qarshiliklarni kamaytiradi va jamoaning yangi tizimlarni qabul qilishini osonlashtiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini<sup>xxiii</sup>** tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmonida barcha sohalarda raqamli iqtisodiyot va raqamli boshqaruvni shakllantirish va yuridik xizmatlarni avtomatlashtirish bilan bog'liq islohotlarni ko'rishimiz

mumkin. Aynan shungao'xshash turdagi normativ-huquqiy hujjatlarni mavjudligi ham taklif sifatida o'rin oladi.

Yuridik firmalarda Legal Tech texnologiyalarini joriy etish bugungi kunda huquqiy xizmatlar tizimini zamonaviylashtirishning eng muhim bosqichlaridan biridir. Bu jarayon nafaqat texnik o'zgarishlarni, balki boshqaruv uslubi, ish jarayoni va xodimlarning kasbiy yondashuvini ham o'zgartiradi. Yangi texnologiyalar yordamida huquqiy xizmatlar ko'rsatish jarayonlari tezlashadi, ma'lumotlarni qayta ishlash aniqligi ortadi va ish samaradorligi sezilarli darajada yaxshilanadi. Ko'pgina dunyo miqyosidagi davlatlarda aynan Legal techn joriy etilishi yuridik firmalar boshqaruvida o'zgarishlarga olib keldi. Shu jumladan, O'zbekiston tajribasida ham bu sohada ijobiy natijalar ko'rinmoqda. Ba'zi firmalar allaqachon elektron hujjat aylanishi, sun'iy intellekt asosida ishlovchi huquqiy tahlil dasturlari yoki onlayn maslahat platformalarini yo'lga qo'yishgan. Bu yondashuvlar nafaqat ish hajmini kamaytiradi, balki mijozlar bilan ishlash sifatini ham oshiradi.

**Xulosa qilib aytganda**, Legal Tech — bu yuridik sohaning kelajagini belgilovchi asosiy yo'nalishlardan biri. Uni to'g'ri va bosqichma-bosqich joriy etish orqali yuridik firmalar raqamli iqtisodiyot sharoitida yanada samarali faoliyat yurita oladi. Eng muhimi, bu jarayon yuridik xizmatlarning ochiqligi, ishonchliligi va tezkorligini ta'minlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Artificial Lawyer. (2020, January 28). White & Case whitelabels LawGeex for client contract review needs.
2. Clifford Chance rasmiy press-relizi va Financial Times Innovative Lawyers Report 2018.
3. Google Scholar.
4. Harvard Law School. (2022). Legal Tech and law firm transformation.
5. Rostain, T. (2019). Robots versus lawyers: A user-centered approach. Georgetown Journal of Legal Ethics, 32, 559–574.
6. Surden, H. (2019). Artificial intelligence and law: An overview. Georgia State University Law Review, 35(4), 1305–1337.
7. Thomson Reuters. (n.d.). Five change management best practices.
8. Thomson Reuters Institute. (2024). The 2024 State of the Legal Market Report.
9. Thomson Reuters. State of the Legal Market 2020.
10. O'zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to'g'risidagi” Qonuni (O'RQ-395-son, 09.12.2015).
11. O'zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi Qonuni (O'RQ-547-son, 02.07.2019).
12. “Raqamli O'zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida Farmon
13. The Law Society Gazette (2021), “Mishcon de Reya fined for client data breach” article
14. EU GDPR 2018, Data Protection Act 2018

- <sup>i</sup> <https://scispace.com/pdf/online-courts-and-the-future-of-justice-susskind-r-e-3c7rrhu5xm.pdf>
- <sup>ii</sup> <https://www.mckinsey.com/~media/mckinsey/featured%20insights/mckinsey%20global%20surveys/mckinsey-global-surveys-2021-a-year-in-review.pdf>
- <sup>iii</sup> <https://www.litera.com/products/kira>
- <sup>iv</sup> <https://www.spellbook.legal/>
- <sup>v</sup> <https://www.luminance.com/>
- <sup>vi</sup> <https://hls.harvard.edu/today/operationalizing-innovation-legal-organizations/>
- <sup>vii</sup> Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonuni — <https://lex.uz/docs/-4396419>
- <sup>viii</sup> Elektron hukumat to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonuni — <https://lex.uz/docs/-2833860>
- <sup>ix</sup> <https://www.whitecase.com/>
- <sup>x</sup> LawGeex Blog. How AI streamlines contract review. <https://blog.lawgeex.com/>
- <sup>xi</sup> Ernst & Young LLP. (2025, October). New EY survey reveals majority of workers are enthusiastic about Agentic AI. [https://www.ey.com/en\\_us/newsroom/2025/10/new-ey-survey-reveals-majority-of-workers-are-enthusiastic-about-agentic-ai-but-leadership-gaps-in-communication-and-lack-of-training-threaten-impactb](https://www.ey.com/en_us/newsroom/2025/10/new-ey-survey-reveals-majority-of-workers-are-enthusiastic-about-agentic-ai-but-leadership-gaps-in-communication-and-lack-of-training-threaten-impactb)
- <sup>xii</sup> <https://www.thomsonreuters.com/en/institute>
- <sup>xiii</sup> Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonuni — <https://lex.uz/docs/-4396419>
- <sup>xiv</sup> <https://gdpr-info.eu/>
- <sup>xv</sup> <https://www.thomsonreuters.com/en/press-releases/2025/march/thomson-reuters-files-2024-annual-report>
- <sup>xvi</sup> McKinsey & Company (2021). <https://www.mckinsey.com>
- <sup>xvii</sup> The Law Society Gazette (2021). "Mishcon de Reya fined for client data breach" <https://www.lawgazette.co.uk/news/mishcon-de-reya-fined-for-client-data-breach/5111667.article>
- <sup>xviii</sup> <https://www.cliffordchance.com/innovation-hub/innovation/capabilities/legal-technology.html>
- <sup>xix</sup> Gartner Research, Digital Transformation Statistics 2024. <https://www.gartner.com/en/digital-transformation>
- <sup>xx</sup> Deloitte Insights, Legal Industry Outlook 2023. <https://www2.deloitte.com/insights>
- <sup>xxi</sup> PwC Global, Law Firms and Data Analytics 2024. <https://www.pwc.com/lawtech>
- <sup>xxii</sup> <https://donotpay.com/>
- <sup>xxiii</sup> <http://lex.uz//ru/docs/-5030957> "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida

INNOVATIVE  
ACADEMY